Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi. https://kun.uz/news/2019/08/23

(2). O‘zbekiston Respublikasining ”Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. 2020 /https://kun.uz

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-qarori. https://lex.uz/docs/3360950

(4). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-qarori. https://lex.uz/docs/4320700

(5). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-qarori. https://lex.uz/docs/5344692

(6). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-qarori.

(7). Quronov M. “Har bir ota-ona pedagog bo‘lish kerak”. Maqola. http://www.adolatnashr.uz/

(8). Akramova F.A. “Oilada sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratishning ijtimoiy-ijtimoiy asoslari”. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2014.

(9). Amir Temur. Tuzuki Temuriy. T., 2019, 7-8-betlar.

(10). Karimova V. Oila himoyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi. “Huquq ba burch”, 5-son, Toshkent, 2007, 31-bet.

(11). Kadirova A.T. O‘smirlarda ijtimoiy nizolar to‘g‘risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixol. fan. nom. dis., Toshkent, 2007, 36-bet.

Rustamov Ramz Rizoqulovich (Qarshi davlat Texnika universiteti dotsenti; ramz.rustamov.81@mail.ru)

JAMOATCHILIK FIKRINI SOG‘LOMLASHTIRISHDA IJTIMOIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Annotatsiya*. Muallif mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda kishilar ongi va faoliyatini tobora faollashib borayotgan destruktiv zamonaviy targ‘ibot ta’siridan muhofazalash jamoatchilik fikrini sog‘lomlashtirish bilan bog‘liq ekanligi, buning uchun mazkur vazifani amalga oshirishga ijtimoiy tarmoqlarning pozitiv imkoniyatlari safarbar qilinmog‘i, bu imkoniyatlarni realizatsiya qilishda qo‘l keladigan choralar amalga oshirilmog‘i lozimligini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar*: targ‘ibot, zamonaviy targ‘ibot, ijtimoiy targ‘ibot, ijtimoiy tarmoq, jamoatchilik fikri, zamonaviy jamiyat.*

Рустамов Рамз Ризокулович (доцент Каршинского государственного технического университета; ramz.rustamov.81@mail.ru)

СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье автор подчеркивает, что защита сознания и деятельности людей от все более разрушительного влияния современной пропаганды в современном обществе связана с оздоровлением общественного мнения, а для этого следует мобилизовать позитивный потенциал социальных сетей на реализацию этой задачи, а также принять соответствующие меры для реализации этих возможностей.*

Ключевые слова: *пропаганда, современная пропаганда, социальная пропаганда, социальная сеть, общественное мнение, современное общество.*

Rustamov Ramz Rizoqulovich (Associate Professor, Karshi State Technical University; ramz.rustamov.81@mail.ru)

WAYS OF USING SOCIAL NETWORKS IN MAKING PUBLIC OPINION

Annotation. *In this article, the author emphasizes that protecting people's consciousness and activities from the increasingly destructive influence of modern propaganda in modern society is associated with the improvement of public opinion, and for this purpose, the positive potential of social networks should be mobilized to implement this task, and measures should be taken to implement these opportunities.*

Keywords: *propaganda, modern propaganda, social propaganda, social network, public opinion, modern society.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikriga ommaviy axborot vositalarining ta’siri naqadar katta bo‘lsa, kun sayin faollashib borayotgan ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri ham shu qadar ahamiyatli bo‘lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar deganda internet makonda shaxslar va tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni

shakllantirish va rivojlantirishga mo‘ljallangan maxsus platformalar tushuniladi.[1] Bugungi kunda internet-makonda turli maqsad va vazifaarni ko‘zda tutgan ijtimoiy tarmoqlar faoliyat olib bormoqda. Xususan, “Facebook”, “V Kontakte”, “Instagram” kabi ijtimoiy tarmoqlar umumiy maqsadli tarmoqlar hisoblanib, hammabopligi bilan tavsiflanadi.[2] “LinkedIn”, “ResearchGate” kabi ijtimoiy tarmoqlar esa kasbiy faoliyat va ilmiy tadqiqotlar uchun mo‘ljallangan. Bundan tashqari, internetda mavzuli tarmoqlarni uchratish mumkin. Masalan, “Stack Overflow” tarmog‘i axborot texnologiyalari bo‘yicha mutaxassislar uchun, “Goodreads” esa kitobsevarlar uchun faoliyat olib boradi. “YouTube”, “TikTok” kabi ijtimoiy tarmoqlar video va audiokontentlarni yaratish va tarqatishga ixtisoslashgan. Har bir ijtimoiy tarmoq o‘z tarkibiy tuzilishiga ega. Jumladan, ular shaxsiy ma’lumotlar va aloqalarni o‘z ichiga olgan foydalanuvchilar profili, postlar, rasmlar, videolar shaklidagi kontentlar, izohlar, chatlar, layklar va repostlar, foydalanuvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va tarmoq ichidagi trendlardan tarkib topadi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar qator ahamiyatli funksiyalarni ado etmoqda. Mutaxassislar ular turkumiga quyidagilarni kiritishadi:

▪axborot tarqatish funksiyasi – ijtimoiy tarmoqlar yangiliklar va dolzarb mavzularni jamoatchilikka yetkazish bilan shug‘ullanadi;[3]

▪muloqot va ijtimoiy aloqalarni tashkil etish funksiyasi – ijtimoiy tarmoqlar kishilar o‘rtasidagi aloqalarni yo‘lga qo‘yadi;[4]

▪ta’lim berish va kasbiy rivojlantirish funksiyasi – ijtimoiy tarmoqlar masofaviy ta’lim olish va malaka oshirish imkoniyatlarini taqdim qiladi;[5]

▪biznes va marketingni amalga oshirish funksiyasi – ijtimoiy tarmoqlar turli brendlar uchun reklama va marketing maydoni bo‘lib xizmat qiladi;[6]

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, turli maqsadlarda qo‘llanilmoqda. Ular insonlar o‘rtasidagi muloqotni osonlashtirmoqda, axborot almashishni tezlashtirmoqda va iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishga sezlarli hissa qo‘shmoqda. Shu bilan birga, ular faoliyatining, ulardan foydalanishning turkum ijobiy va salbiy jihatlari ko‘zga tashlanayotganini ham nazardan qochirmaslik lozim. Chunonchi, bir tomondan, ijtimoiy tarmoqlar yangiliklarni tezkor tarqatish imkonini bermoqda. Foydalanuvchilar ular yordamida jahonda va mamlakatda sodir bo‘lgan voqealar haqida tez va oson ma’lumot olmoqdalar. Bu borada “Twitter” va “Facebook” kabi platformalar, ayniqsa, faollik ko‘rsatmoqdalar. Ijtimoiy tarmoqlar kishilarga yaqin birodarlari, oila a’zolari bilan muloqotda bo‘lish imonini bermoqda. Masofaviy ishlash, ta’lim olish, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish borasida ham ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni ayrichaligicha qolmoqda. Lekin, ikkinchi tomondan, ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilar shaxsiy ma’lumotlarining turli davralar tomonidan to‘planishiga va suiiste’mol qilinishiga sharoit yaratmoqda. Ulardan muntazam ravishda foydalangan kishilarda ijtimoiy tarmoqlarga bog‘liqlik kasalligi yuzaga kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda ideallashtirilgan hayot tarzini ko‘rgan ayrim kishilarda depressiya va stress holatlari ildiz otmoqda.[7] Ularning ta’siri o‘laroq, o‘smirlar va yoshlar orasida kiberbulling (onlayn-tazyiq, haqorat, shaxsiy ma’lumotlarni ommalashtirish bilan tahdid solish) muammolari yuzaga kelmoqda.[8] Eng tashvishlanarlisi, ayrim ijtimoiy tarmoqlar kishilar ongi va faoliyatini manipulatsiya qilish, dezinformatsiyalar tarqatish, trolllar va botlar orqali jamoatchilik fikriga ta’sir o‘tkazish manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

▪Nima bo‘lganda ham, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar jamoatchilik fikriga jiddiy darajada ta’sir o‘tkazuvchi omil sifatida qolmoqda. Buni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

---

[1] Boyd D.M., Ellison, N.B. Social network sites. Definition, history, and scholarship. Journal of Computer-Mediated Communication, 2007, № 1, p. 210–230.

[2] Kaplan A.M., Haenlein M. Users of the world, unite! The challenges and opportunities of social media. Business Horizons, 2010, № 1, p. 59–68.

[3]Newman N., Fletcher R., Kalogeropoulos A., Nielsen R.K. Reuters Institute Digital News Report 2019. amic. Media /media/files/file_352_2028 .pdf.

[4] Wellman B., Haase A.Q., Witte, J., Hampton K. Does the internet increase, decrease, or supplement social capital?// American Behavioral Scientist, 2001, № 3, p. 436–455.

[5] Selwyn N. Social media in higher education. The Europa World of Learning, 2012, № 2, p. 1–9.

[6] Kietzmann J.H., Hermkens K., McCarthy I.P., Silvestre B.S. Social media? Get serious! Understanding the functional building blocks of social media. Business Horizons, 2011, № 3, p. 241–251.

[7] Fardouly J., Diedrichs P C., Vartanian L.R., Halliwell, E. Social comparisons on social media. The impact of Facebook on young women’s body image concerns. Body Image, 2015, № 13, p. 38–45.

[8] Patchin J.W., Hinduja S. Cyberbullying and self-esteem. Journal of School Health, 2010, № 12, p. 614–621.

▪ijtimoiy tarmoqlar orqali axborotlar keng ko‘lamda va tez tarqaladi, bu esa jamoatchilik fikrining tezkor shakllanishiga sabab bo‘ladi. Masalan, Facebook va Twitter kabi platformalarda xabarlar soniya ichida dunyo bo‘ylab tarqalishi mumkin. Bu tezkor axborot almashinuvi jamoatchilik fikrini qisqa muddatda tubdan o‘zgartirish imkonini beradi;

▪ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkonini beradi. Bu platformalarda har bir foydalanuvchi muayyan mavzu va muammo yuzasidan o‘z fikrini bildirishi, boshqa foydalanuvchilarning nuqtayi nazari bilan tanishishi, ularni muhokama qilishi mumkin. Natijada jamoatchilik fikri xilma-xil fikrlar va nuqtayi nazarlar evaziga takomil topadi;

▪ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo‘lgan mavzular, heshteglar jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu mavzular orqali foydalanuvchilar ma’lum bir maqsad atrofida birlashib, o‘z fikrlarini bildiradilar. Maazkur jarayon jamoatchilik fikrining shakllanishiga va rivojlanishiga poydevor yaratadi;

▪ayrim pallalarda ijtimoiy tarmoqlar fikrlarning qutblashuviga sabab bo‘ladi, chunki foydalanuvchilar o‘z qiziqishlariga mos kontentni qidiradilar hamda hammaslaklarini jamlagan guruhlarga birlashadilar. Oqibatda ular faqat o‘z nuqtayi nazarlarini tasdiqlovchi axborotlarni o‘zashtira boshlashadi;

▪ba’zi guruhlar jamoatchilik fikrini o‘zgartirish bilan bog‘liq niyatlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali ro‘yobga chiqarishga intiladilar. Ular ma’lum bir mavzu yoki g‘oya atrofida kontent yaratib, faol targ‘ibot olib boradilar. Aksar hollarda bunday yondashuv jamoatchilik fikrining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi;

▪ijtimoiy tarmoqlar turfa ijtimoiy harakatlarni qo‘llab-quvvatlashda ham qo‘l keladi. Foydalanuvchilar o‘z fikrlarini bildirish, tadbirlar haqida xabar berish va boshqalarni unga jalb qilish orqali ijtimoiy harakatlarda ishtirok etadilar. Bu jarayon ham jamoatchilik fikrining evrilishiga olib kelishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy tarmoqlarning jamoatchilik fikrini shakllantirish va o‘zgartirish borasida imkoniyatlari ham ancha salmoqli. Mazkur imkoniyatlardan jamoatchilik fikrini sog‘lomlashtirish yo‘lida oqilona foydalanish kishilar ongi va faoliyatini destruktiv targ‘ibot ta’siridan muhofaza qilish potensialini yuksaltiradi. Bu borada qator tavsiyalarga e’tibor berish lozim deb hisoblaymiz.

Birinchidan, kishilarning ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanishga doir ko‘nikmalarini yuksaltirish kerak. Kishilarning ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini oshirish – bu faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy ahamiyatga molik masala hamdir. Har bir insonning raqamli savodxonligi oshgan sari jamoatchilik fikri sog‘lomlashib, jamiyatda haqqoniy axborotga asoslangan qarorlar qabul qilinishiga zamin yaratiladi. Shu bois ta’lim, kiberxavfsizlik va axborot madaniyatini yuksaltirish borasida davlat tomonidan belgilangan chora-tadbirlar ijrosi jamoat tashkilotlarining ustuvor vazifalardan biri bo‘lmog‘i kerak.

Ikkinchidan, jamiyat a’zolarida ijtimoiy tarmoqlardagi mazmunli va konstruktiv muhokamalardagina qatnashish odatini qaror toptirish lozim. Mazmunli muhokama deganda foydali ma’lumotlar hamda o‘zaro hurmat asosida olib boriladigan muloqot, konstruktiv muhokama deganda esa jamiyatda mavjud muammolarni pragmatik tahlil qilishga yo‘naltirilgan muloqot nazarda tutiladi. Jamiyat a’zolarida mazmunli va konstruktiv muhokamalarda ishtirok etish odatining qaror toptirirlishi jamoatchilik fikrining sog‘lomlashuviga, axborot madaniyatining rivojlanishiga va ijtimoiy birdamlikning mustahkamlanishiga olib keladi. Agar odamlar o‘z fikrlarini erkin va asosli holda, lekin o‘zaro hurmat va axloq tamoyillariga tayangan tarzda bayon etishga odatlansalar, jamiyatda ziddiyatli holatlar sezilarli ravishda kamayadi, mavjud muam-molarni samarali hal etishga imkon tug‘iladi.

Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, ularning noqonuniy tarqalishini oldini olish zarur. Insonning shaxsiy hayotiga oid axborotlar, xususan, ularning pasport ma’lumotlari, manzili, bankdagi hisob raqamlari, elektron pochtasi, telefon raqami, geolokatsiya ma’lumotlari turli maqsadlarda, shu jumladan, firibgarlik, kiberhujumlar va shaxsga doir axborotlarni manipulatsiya qilish uchun suiiste’mol qilinishi mumkinligi sir emas. Bunday ma’lumotlarning himoya qilinishi nafaqat foydalanuvchilar xavfsizligini, balki shaxsiy hayot daxlsizligini ham ta’minlaydi. Ana shunday xavfsizlik yuzaga kelgan sharoitdagina jamoatchilik orasida salbiy fikr va nuqtayi nazarlar tarqalishining oldi olinadi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda kishilarni ezgulikka chorlaydigan, insonparvar g‘oyalarni targ‘ib va tashviq qilishga mo‘ljallangan sahifalar, guruhlar sonini ko‘paytirish choralarini ko‘rish kerak. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda axborot tarqatishning eng ommaviy vositasiga aylanib borayotganini qayd etib o‘tdik. Ular yordamida turli g‘oyalarning targ‘ib qilinayotgani ham ma’lum fakt. Agar ijtimoiy tarmoqlarda ezgulik, insonparvarlik, bag‘rikenglik va mehr-muruvvatni targ‘ib etuvchi platformalar soni ko‘paytirilsa, jamiyatda ijobiy o‘zgarishlar yuzaga kelgan, sog‘lom jamoatchilik fikri qaror topgan, pozitiv fikrlaydigan kishilar soni benihoya oshgan bo‘lardi.

Beshinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda destruktiv g‘oyalarning mohiyatini ochib berishga mo‘ljallangan sahifalarni ko‘paytirish lozim. Ijtimoiy tarmoqlarda ijtimoiy ziddiyatlar va beqarorlikni kuchaytirishga qaratilgan ekstremizm, radikalizm, millatchilik, diniy mutaassiblik kabi g‘oyalarning tarqalayotgani, targ‘ib etilayotgani ham yorqin ko‘zga tashlanmoqda. Agar bunday tendensiyalarga qarshi yetarlicha tushuntirish ishlari olib borilmasa, ushbu destruktiv g‘oyalarning jamoatchilik fikriga salbiy ta’siri kuchayib boraveradi, ularning iskanjasiga tushgan kishilar soni ham ortaveradi. Shu bois ijtimoiy tarmoqlarda destruktiv g‘oyalar mohiyatini ochib berishga mo‘ljallangan sahifalarni ko‘paytirish, jamiyatga bu tahdidlarning salbiy oqibatlarini yetkazish va odamlarni ulardan himoya qilish benihoya muhimdir.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo‘lsak, zamonaviy jamiyatda kishilar ongi va faoliyatini tobora faollashib borayotgan destruktiv zamonaviy targ‘ibot ta’siridan muhofazalash borasidagi ikkinchi vazifa jamoatchilik fikrini sog‘lomlashtirish bilan bog‘liq. Buning uchun mazkur vazifa ijrosiga ijtimoiy tarmoqlarning pozitiv imkoniyatlari safarbar qilinmog‘i, bu imkoniyatlarni realizatsiya qilishda qo‘l keladigan choralar amalga oshirilmog‘i darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Boyd D.M., Ellison, N.B. Social network sites: Definition, history, and scholarship. Journal of Computer-Mediated Communication, 2007, № 1, p. 210–230.

(2). Kaplan A.M., Haenlein M. Users of the world, unite! The challenges and opportunities of social media. Business Horizons, 2010, № 1, p. 59–68.

(3). Newman N., Fletcher R., Kalogeropoulos A., Nielsen R.K. Reuters Institute Digital News Report. 2019, amic.media/media/files/file_352_2028. pdf.

(4). Wellman B., Haase A.Q., Witte, J., Hampton K. Does the internet increase, decrease, or supplement social capital?//American Behavioral Scientist, 2001, № 3, p. 436–455.

(5). Selwyn N. Social media in higher education. The Europa World of Learning, 2012, №, 2, p. 1–9.

(6). Kietzmann J.H., Hermkens K., McCarthy I.P., Silvestre B.S. Social media? Get serious! Understanding the functional building blocks of social media. Business Horizons, 2011, №3, p. 241–251.

(7). Fardouly J., Diedrichs P.C., Vartanian L.R., Halliwell, E. Social comparisons on social media. The impact of Facebook on young women's body image concerns. Body Image, 2015, № 13, p. 38–45.

(8). Patchin J.W., Hinduja S. Cyberbullying and self-esteem. Journal of School Health, 2010, №12, p. 614–621.

Jamolov Davronbek Baxtiyor o‘g‘li (Axborot Texnologiyalari va menejment universiteti “Tarix” kafedrasi dotsenti (PhD); e-mail: jamolovdavronbek4@gmail.com)

MILLIY QADRIYATLARNI ASRAB-AVAYLASHDA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada milliy qadriyatlar millat vakillarining ongi va faoliyatini, ularning turli jarayon va voqealarga munosabatini, ehtiyoj va manfaatlarini, maqsad va ideallarini shakllantiruvchi qudratli manbaaligi haqida ma’lumot berilgan. Inson uchun Vatan tabiati bilan bog‘liq ayrim xususiyatlar, hodisalar qadriyat darajasiga ko‘tarilishi mumkinligini aytib o‘tadigan bo‘lsak, ushbu qadriyatlar vatanparvarlik tuyg‘ularini qaror toptiruvchi omil vazifasini ham o‘taydi. Aynan shu boisdan ko‘plab shoirlar Vatanga bo‘lgan muhabbatlarini ifodalashda tabiat tasviridan foydalanganlar.*

Kalit so‘zlar: *shaxsning shakllanishi, milliy an’ana, milliy tarbiya, milliy madaniyat, jamiyat, axloq, qadriyatlar, milliy qadriyatlar, milliy ehtiyoj.*

Джамалов Давронбек Бахтияр ogli (Университет информационных технологий и менеджмента, доцент кафедры “Истории” (PhD); e-mail: jamolovdavronbek4@gmail.com)

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СОХРАНЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. *В данной статье представлена информация о мощном источнике национальных ценностей, формирующих сознание и деятельность представителей нации, их отношение к различным процессам и событиям, потребностям и интересам, целям и идеалам. Если упомянуть, что некоторые особенности и события, связанные с природой Родины, могут быть подняты на уровень ценности для человека, то эти ценности служат и фактором, определяющим патриотические чувства. Именно поэтому многие поэты использовали образ природы для выражения своей любви к Родине.*

Ключевые слова: *формирование личности, национальная традиция, национальное образование, национальная культура, общество, этика, ценности, национальные ценности, национальные потребности.*